

SO‘FI OLLOHYOR ILMIY MEROSI

Ramazonova Ra‘no

Termiz davlat universiteti Rus va qardosh tillar fakulteti
tojik tili yo‘nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10408243>

Annotatsiya. Mazkur maqolada So‘fi Ollohyor ilmiy merosi va ijodi haqida so‘z boradi. Shuningdek, maqolamizda allomaning hayoti va ijodi, yozgan asarlari, ularning hozirgi kundagi ahamiyati o‘rganilgan. Maqola davomida asosli fikr va mulohazalardan foydalanilgan. Maqola so‘nggida xulosa berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: So‘fi Ollohyor, buyuk shaxslar, avliyolar, ajdodlar tarixi, allomaning hayoti va ijodi.

SCIENTIFIC HERITAGE OF SUFI ALLOHYOR

Abstract. This article talks about the scientific heritage and creativity of Sufi Allahyor. Also, in our article, the life and work of the scholar, his works, and their significance today are studied. Reasonable opinions and comments are used throughout the article. The conclusion is given at the end of the article.

Key words: Sufi Allahyor, history of great personalities, saints, ancestors, life and work of scholars.

НАУЧНОЕ НАСЛЕДИЕ СУФИЯ АЛЛОХОЙАРА

Аннотация. В данной статье говорится о научном наследии и творчестве суфия Аллахойора. Также в нашей статье изучаются жизнь и деятельность ученого, его труды, их значение сегодня. На протяжении всей статьи используются обоснованные мнения и комментарии. Заключение приведено в конце статьи.

Ключевые слова: суфий Аллахойор, история великих личностей, святых, предков, жизнь и деятельность ученых.

Yurtimizdan ko‘plab buyuk shaxslar, avliyolar, allomalaru ulamolarning yetishib chiqqanini nafaqat xalqimiz, balki jahon xalqlari ham e‘tirof etadi. Ana shunday mashhur allomalardan biri o‘zbek tasavvuf adabiyotining yirik namoyandasi, diniy ilmlarni mukammal egallagan So‘fi Ollohyordir. Quyidagi maqolamizda allomaning hayoti va ijodi, yozgan asarlari, ularning hozirgi kundagi ahamiyati haqida so‘z boradi. Buyuk ajdodlarimizning tarixini bilish ular yozgan asarlarining mohiyatini anglash va o‘rganish har birimizning burchimizdir.

Zamonamizning mashhur olimlaridan biri R.Mirzayevning izlanishlariga ko‘ra So‘fi Ollohyor 1663-yil Samarqand viloyatining Minglar qishlog‘ida dunyoga kelgan. 1724-yil Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumani Vaxshivor qishlog‘ida vafot etadi. So‘fi Ollohyor 2-3 yoshida o‘qish va yozishni o‘rganib, 6 yoshida Qur‘oni karimni yod oladi. 12 yoshida esa otasi Ollohquli Buxorodagi mashhur “Jo‘ybor” madrasasiga o‘qishga yuboradi. U yerda barcha fanlarni yaxshi o‘zlashtirib, arab va fors tillarini mukammal o‘rganadi. O‘zining donoligi va zukkoligi bilan Buxoro Amiri Abdulazizxonning e‘tiboriga tushib, 25 yoshida bojxona-soliq to‘ralisi lavozimiga tayinlanad. U bu lavozimda bir muddat faoliyat yuritib, keyinchalik o‘z ixtiyori bilan iste‘foga chiqadi. Tasavvuf va ibodatga muhabbati sabab o‘sha davrning mashhur donishmandlaridan biri Shayx Habibullohga murud tushadi. U kishidan 12 yil davomida barcha

ilm sirlarini o‘rganib, shayxlik darajasiga ko‘tariladi. “Uzot naqshbandiya tariqatining murshidi komili, zohir va botin-shariat va tariqat ilmlaridan nodir alloma, Haq va xalq suyuklisi, daho mutafakkir, nodir mutasavvif, san’atkor shoir, sohibkaroamat, sohibmaqom, sohibkitob valiydir”¹.

Allomaning ilmiy merosi 3 tilda ya’ni arab, fors, va turkiy tillarda yozilgan. “Mahzan ul-mutein” (“Itoatkorlar xazinasini”) asari arab tilda yozilgan yagona asaridir. Bu asar ikki bo‘limdan iborat. Birinchi bo‘limi “Aqidalar kitobi” deb nomlanib 27 faslni o‘z ichiga oladi. Ikkinchi bo‘lim amaliy masalarni o‘z ichiga olib 17 fasldan ziyoddir. “Maslak ul-muttaqin” va “Murod ul-orifin” fors tilida yozilgan. “Maslak ul-muttaqin” (“Taqvodorlar maslagi”) asari allomaning eng yirik asari bo‘lib, 1700-1701 yillar oralig‘ida ta’lif etilgan. Uning hajmi 12 ming bayt va 135 bobdan iborat. “Murod ul-orifin” ya’ni “Oriflar murodi” kitobi 15 fasldan bo‘lib, muallif uni 30 ga yaqin ulamolar va so‘fiylar risolasiga tayanib yozilganligi ba’zi manbalarda keltirilgan.

“Sabot ul-ujizin” (“Ojizlar saboti”) va “Favz un-najot” (“Najot tantanasi”) ² asari turkiy tilda yozilgan. “Sabot ul-ujizin” asari mashhur bo‘lib, “Qur’onning mag‘zi” deb ham etirof etiladi. “Sabot ul-ujizin” asari 1500 baytdan ortiqroqdir. Asar dunyoning bir qancha mamlakatlarida tarjima va nashr qilingan. Bu asar yurtimiz mustaqillikka erishgan davrda 1991-yil “Cho‘lpon” nashriyotida Rashid Zohidov, “Mehnat” nashriyotida Hoji Po‘latqori Muhammad Ali, Mahmud Hasaniy, Mirsolih Qosimlar tomonidan nashr etilgan. 2007-yil va 2018-yilda “Sharq” nashriyotida Rashid Zohidov tomonidan sharhi bilan qayta nashr etildi. 2018-yil Imom Buxoriy xalqaro markazi nashriyotida Mas’udxon Ismoilov va Abrorxon Akbarov tomonidan sharhlari bilan chiqdi. Bu asar ham allomaning mashhur asarlaridan hisoblanib maxsus darslik sifatida madrasalarda o‘qitilgan. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, So‘fi Ollohyor hazratlari forsiy va turkiy tilda yozgan g‘azallari ham mavjud bo‘lib Ubaydullo Alamkashning “Bayozi Alamkash” to‘plamida 73 g‘azali va 30 yaqin fors tojik tilida yozilgan “Ko‘zing birla och” she’rlar to‘plami keltirilgan.

Alloma turkiy-o‘zbek va fors-tojik adabiy aloqalarini va ushbu ikki adabiyot tarkibida shakllangan zullisonaynlik an’anasi rivojiga munosib hissa qo‘shgan. So‘fi Ollohyor o‘zbek adabiyoti tarixida Navoiydan so‘ng naqshbandiya tariqatini she’riy shaklda izchil targ‘ib qilgan ulug‘ so‘z san’atkoridir”³. Shoir o‘zbek va tojik tillarida oliy darajada she’r ijod qilgan. She’rlarining hammasi axloqiy tarbiyaga egadir. Shoir she’rlaridan namunalar:

Agar bersa jahon sultonlig‘in dast⁴,

Kishi o‘z holini bilmoq kerak past⁵.

Ya’ni, agar senga jahon sultonligini bersalar ham takabburlanib ketma kibrga berilma, chunki bu dunyo o‘tkinchidir. Bugun senda bor bo‘lgan shuhrat, martaba va davlat ertaga yo‘qqa aylanishi hech gap emas. Hammamiz tuproqdan yaraldik, tuproqqa aylanamiz. Shunday ekan o‘zimizni osmon bilishga na hojat. Hamisha kamtar va xokisor bo‘laylik. Yana bir boshqa baytda shoir shunday yozadi:

Kel ey tolib! Ko‘zing ibrat bilan och,

¹ Mirza Kenjabek. Buyuk termiziylar.447-bet.

² Ushbu asar So‘fi Ollohyorga tegishli deb qaraladi.

³ O.Jo‘raev. K. Jamahmatov. So‘fi Ollohyor. 9-bet

⁴ Foscha - martaba

⁵ Rashid Zohid. Sabot ul-ujizin 43-bet

Muhabbatsiz kishidan qush bo‘lib qoch⁶.

Ya’ni ey inson dunyoga ibrat ko‘zi bilan boq, qaysi kishining qalbida mehru muhabbati va shavqati bo‘lmasa undan uzoq yur, nari qoch chunki qalbida mehru-muhabbati yo‘q insonning qo‘lidan har qanday yomonlik keladi.

Yana bir she’rida shunday deydi:

Piring⁷ farmonidan qilsang taxalluf⁸,

Taassufdir⁹, taassufdir, taassuf¹⁰.

So‘fi Oллоhyor piri murshid, yani ustoz sifatida o‘z shogirdlariga pand nasihat qilib aytadiki: “Ey shogird agar ustozingga ergashmay unga xilof ish tutsang, bir kuni pushaymon bo‘lasan. Bu fikrni isboti sifatida jahon adabiyotining yetuk namoyandalaridan biri bo‘lgan Hofiz She’roziyning mashhur ushbu baytini keltirishimiz mumkun:

Botir sajjodani mayga agar piri mug‘on aytsa,

Yo‘lovchiga ma’lum erur yo‘l ahvoli va manzillar.

“So‘fi Oллоhyorning she’riy asarlari, haqiqatda ulug‘ karomatdir. Forsiy va turkiy tilda ravon va jo‘shqin ijod qilgan. Ayniqsa “Maslak ul-muttaqin” va “Sabot ul-ojizin” kitoblarida O‘rta Osiyo va Sharq olamining boshqa mamlakatlari madrasalarida ulkan ulkan e’tibor bilan o‘qitilgan”¹¹.

Ulug‘ allomaning ijodiy faoliyati va yozgan asarlari yurtimizda Sh.Sirojiddinov, R.Zohidov, N.Allayorova, J.Abdufattohov, R.Mirzayev, I.Haqqul tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa, jahon olimlaridan esa R.Maxanova, T.Yolchiqulov, S.H.Yahyoxon tomonlaridan o‘ganilgan.

Xulosa qilib, So‘fi Oллоhyor ijodining naqadar benazir va buyukligini, xalqimiz va dunyo xalqlarining uning yozgan asarliga bo‘lgan talabi va qiziqishidan bilishimiz mumkin. Uning yozgan asarlari asrlar o‘tsa ham o‘zining qiymati va bahosini yo‘qotgan emas. Alloma o‘zbek va tojik adabiyotini o‘lmas asarlar qatorida boyitishga o‘zining ulkan hissasini qo‘shgan. So‘fi Oллоhyor ijodi bir ummon kabidir. Uning poyoniga yetmoq dushvor, albatta. Ammo uni yetarli darajada xalqimiz va yoshlarimizga yetkazib berish biz adabiyotchilarning burchimizdir.

REFERENCES

1. Mirzo Kenjabek. Buyuk Termiziylar. Davlat ilmiy nashriyoti: Toshkent, 2017.
2. Jo‘raev O, Jamahmatov K. Buyuk Termiziylar, So‘fi Oллоhyor. “Shamsuddinxon Boboxonov” nashriyoti. Toshkent, 2021.
3. Hasanov B. So‘fi Oллоhyor. Risolai aziza “Sabot ul-ojizin sharhi”. Toshkent: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2000.
4. Hoji Po‘latqori Muhammad Ali, Mahmud Hasaniy, Mirsoliq Qosim. Sabot ul-ojizin. Toshkent: Mehnat nashriyoti, 1991.
5. Rashid Zohid. So‘fi Oллоhyor. Sabot ul-ojizin. Toshkent: Cho‘lpon nashriyoti, 1991
6. Rashid Zohid. Ravoyihur Rayhon “Sabot ul-ojizin sharhi”. Toshkent: “Sharq” nashriyoti.

⁶ Rashid Zohid. Sabot ul-ojizin. 50-bet

⁷ Forscha- o‘z ishining ustasi

⁸ Arabcha -vadaga xilof ish tutish

⁹ Arabcha- pishaymonlik

¹⁰ “Risolai aziza” „Sabot ul-ojizin” sharhi. 97-bet.

¹¹ Mirzo Kenjabek .Buyuk TermiziylarDavlat ilmiy nashriyoti. 452-bet